



Comparative analysis of the Salam contract and contractation agreements in Uzbekistan's legislation: legal aspects and practice

Anvarbek YULDOSHBEKOV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

Salam contract,
contractation agreement,
Islamic finance,
sales contracts,
agricultural contracts,
payment mechanisms,
contractual obligations,
contractual risks,
liability of the parties.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the Salam contract and the contractation agreement in Uzbekistan's legislation. The Salam contract is an important component of the Islamic financial system, which involves prepayment for goods or products and subsequent delivery of the products at a specified time. This contract is widely used in the agriculture and industrial sectors. The contractation agreement in Uzbekistan's legislation is a sales contract between the producer and the buyer, which stipulates the obligation to deliver the produced goods within specified deadlines. This type of contract is mainly associated with the delivery of agricultural products. The article compares the main legal features of the Salam contract and the contractation agreement, including payment and delivery terms, obligations of the parties, liability, and risk management mechanisms. Furthermore, the article examines the similarities and differences between the prepayment system specific to the Salam contract and the payment mechanisms in the contractation agreement.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss9/S-pp45-50>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Lecturer, Department of Business Law, Tashkent State University of Law.
Email: anvarbekyuldashbekov07@gmail.com.

Salam shartnomasi va o'zbekiston qonunchiligidagi kontraktatsiya shartnomalarining qiyosiy tahlili: huquqiy jihatlar va amaliyot

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Salam shartnomasi, kontraktatsiya shartnomasi, islom moliyasi, oldi-sotdi shartnomalari, qishloq xo'jaligi shartnomalari, to'lov mexanizmlari, shartnoma majburiyatlari, shartnoma xatarlari, taraflarning javobgarligi.

Ushbu maqolada Salam shartnomasi va O'zbekiston qonunchiligidagi kontraktatsiya shartnomasining qiyosiy tahlili olib boriladi. Salam shartnomasi Islom moliyasi tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u tovar yoki mahsulot uchun oldindan to'lov qilish va keyinchalik mahsulotni belgilangan muddatda yetkazib berishni nazarda tutadi. Mazkur shartnoma qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida keng qo'llaniladigan shartnoma turi hisoblanadi.

Kontraktatsiya shartnomasi esa O'zbekiston qonunchiligida mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan oldi-sotdi shartnomasi bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar belgilangan muddatda yetkazib berilishi shart qilib qo'yiladi. Mazkur shartnoma, asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bilan bog'liq.

Maqolada salam shartnomasi va kontraktatsiya shartnomasining asosiy huquqiy xususiyatlari, to'lov va yetkazib berish shartlari, taraflarning majburiyatlari, javobgarligi hamda xatarlarni boshqarish mexanizmlari solishtiriladi. Shuningdek, salam shartnomasiga xos bo'lgan oldindan to'lov tartibi va kontraktatsiya shartnomasidagi to'lov mexanizmlarining o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

Сравнительный анализ договора Салам и договоров контрактации в законодательстве Узбекистана: правовые аспекты и практика

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Договор Салам, договор контрактации, исламские финансы, договоры купли-продажи, договоры в сельском хозяйстве, механизмы оплаты, обязательства по договору, риски по договору, ответственность сторон.

В данной статье проводится сравнительный анализ договоров Салам и контрактации в контексте законодательства Узбекистана. Договор Салам, являющийся важной частью исламской финансовой системы, предполагает предоплату за товар или продукцию с последующей поставкой в установленный срок. Этот договор широко используется в сельском хозяйстве и промышленности.

Договор контрактации в законодательстве Узбекистана представляет собой форму купли-продажи между производителем и покупателем, при которой производитель обязуется поставить произведённую продукцию в оговорённые сроки. В основном такой договор применяется при поставках сельскохозяйственной продукции.

В статье сравниваются ключевые правовые особенности договоров Салам и контрактации, включая условия оплаты и

поставки, обязательства сторон, ответственность и механизмы управления рисками. Особое внимание уделяется сходствам и различиям между предоплатой, характерной для договора Салам, и механизмами оплаты, предусмотренными в договоре контрактации.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy erkinlik, raqobat va innovatsiyalar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Islom moliyasi ushbu tamoyillarni qo'llab-quvvatlab, moliyaviy operatsiyalarning muqobil shakllarini taklif etadi. An'anaviy moliya tizimi odatda foiz (ribo) asosida ishlaydi, Islom moliyasi esa foizga asoslangan operatsiyalarni taqiqlaydi va tijorat faoliyati bilan bog'liq daromadlar asosida moliyaviy vositalarni yaratadi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida ham ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlikka erishishga xizmat qilishi mumkin.

Islom moliyasi tizimidagi shartnomalar turli moliyaviy operatsiyalarni shar'iy qoidalar asosida amalga oshirish uchun yaratilgan bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va qoidalari mavjud. Shu jumladan, salam shartnomasi — Islom moliyasining muhim tuzilmalaridan biri hisoblanib, u tovarlar uchun avans to'lov amalga oshirilishi va ularning keyinchalik belgilangan muddatda yetkazib berilishini nazarda tutadi. Bu shartnoma, asosan, qishloq xo'jaligi va sanoat sohaslarida qo'llanilib, moliyaviy barqarorlik va xatarlarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Boshqa tomondan, kontraktatsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligida mustahkamlangan bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan ularni sotib oluvchilar o'rtasidagi kelishuvlarni tartibga soladi. Mazkur shartnoma mahsulotlarni yetkazib berish muddatlari, sifat talablari va to'lov mexanizmlarini belgilab, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Ushbu maqolada salam shartnomasi va kontraktatsiya shartnomasining huquqiy jihatlari, tuzilishi va amaliy qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Islom moliyasining shar'iy tamoyillari asosida tuzilgan salam shartnomasi va O'zbekistonning amaldagi qonunchilikka muvofiq kontraktatsiya shartnomasi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar o'rganiladi. Bu tahlil ikki xil shartnomaning huquqiy asoslari, taraflar majburiyatlari, to'lov va yetkazib berish tartiblari hamda xatarlarni boshqarish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolaning asosiy maqsadi – salam shartnomasi va kontraktatsiya shartnomasining huquqiy tizimidagi mavqei va ularning O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda qo'llanilish imkoniyatlarini o'rganish orqali mavjud qonunchilikni yanada takomillashtirishga yo'l ochishdir.

Islom huquqi (fiqh) Salam shartnomasining huquqiy asoslarini yaratadi. Bu huquqiy tizimda asosiy e'tibor xatarlardan himoya qilish, adolatli savdo va foizsiz moliyaviy faoliyatga qaratilgan. Fiqh bo'yicha asosiy qoida – mahsulot mavjud bo'lmasa ham, to'lov amalga oshirilishi mumkin, biroq mahsulotning sifati, miqdori, yetkazib berish vaqti aniq belgilangan bo'lishi kerak. [1]

Salamning eng asosiy qoidasi — xaridor mahsulot uchun oldindan 100 foiz to'lov qiladi, sotuvchi esa mahsulotni kelishilgan paytda (kelajakda) xaridorga yetkazib berishi shart! Agar xaridor sotuvchiga qisman pul to'lasa, u holda qolgan pul ham nasiya, mol

ham nasiya bo'lib qoladi. Bunday savdo nasiyani nasiyaga sotish bo'ladi. Bu esa riboviy amaliyot hisoblanadi. [2]

Fiqhiiy olim Abdulmannon Abdulloh ham o'zining "Tijorat va ishlab chiqarish haqida tasavvur" asarida salam shartnomasi bo'yicha o'z fikrlarini quyidagicha bayon etgan bo'lib, unga ko'ra: "Bayi salam savdosi vaqtida sotilayotgan narsa mavjud ham, tayin ham va sotuvchining mulkida ham bo'lmasligi takidlab o'tilgan. Shu sababli, ushbu savdo aslida joiz bo'lmasligi lozim. Biroq shariat odamlarning zarur hojatlari, xususan, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan kishilarning ehtiyojlarini e'tiborga olib, bu savdoga ijozat bergan. Sababi bu savdoda sotuvchiga ham, xaridorga ham – har ikkisiga foyda bor. Masalan, sotuvchi pulni oldindan olsa, u pul bilan oilasini boqadi va boshqa narsalarni ham sotib oladi. Xaridor esa oldindan bergani uchun oladigan narsasini ommaviy narxdan arzonroq oladi" [3]. Bundan xulosa qilish mumkinki, pulning oldindan to'langanligi kelajakda bozordagi narxning ko'tarilib, tushishidan ikkala tomon ham himoyalangan bo'ladi.

Salam shartnomasining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida quyidagini ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq, ya'ni xaridor tomonidan sotuvchiga tovarni yetkazib berishdan oldin to'liq to'lovni amalga oshirishidir. Tovar hali ishlab chiqarilmagan yoki yetishtirilmagan bo'lsa ham, to'lov to'liq beriladi. Bu islomiy moliyaviy huquqda riba (foiz) va garar (noaniqlik)ning oldini olishga qaratilgan.

Shu o'rinda kontraktatsiya shartnomasining huquqiy jihatiga to'xtaladigan bo'lsak.

Kontraktatsiya shartnomasi iqtisodiy mazmun jihatdan oldi-sotdi shartnomasining bir turidir. Lekin u o'ziga xos huquqiy belgilari bilan oldi-sotdi shartnomasining boshqa turlaridan ajralib turadi.

Kontraktatsiya shartnomasiga tarif O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasida belgilangan bo'lib, unga asosan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga – tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi. [4]

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga muvofiq shartnoma so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan bo'lib, ya'ni ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

Kontraktatsiya shartnomasining huquqiy belgilari:

birinchidan, konsensual bo'lib, shartnoma taraflar o'rtasida kelishib (tuzilib) imzolanganidan so'ng darhol kuchga kiradi hamda huquq va majburiyatlar yuklaydi;

ikkinchidan, u ikki tomonlama bo'lib, shartnomada xo'jalik va tayyorlovchi o'zlariga tegishli huquq va majburiyatlar oladi;

uchinchidan, u haq baravariga tuziladi, ya'ni yetkazib berilgan mahsulot evaziga ikkinchi taraf uning haqini to'lashga majburdir;

to'rtinchidan, shartnoma ham rejali, ham erkin kelishuvda bo'lishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Ilmiy o'rganishlar natijasida shuni ko'rish mumkinki, Islom huquq tizimida mavjud salam shartnomasi mazmunan ham shaklan kontraktatsiya shartnomasiga yaqin bo'lganligi sababli, ushbu ikki shartnomani ilmiy-amaliy jihatdan qiyosiy tahlil qilish

maqsadga muvofiq. Salam shartnomasi va Kontraktatsiya shartnomasi o'ziga xos shartnomalar bo'lib, ular har biri turli xil iqtisodiy va huquqiy doiralarda qo'llaniladi. Ularning ilmiy jihatdan o'rganilishi turli manbalar orqali keng yoritilgan, lekin ular har xil huquqiy tizimlar va iqtisodiy sharoitlarga asoslanadi.

Muhammad Taqi Usmani o'zining "An Introduction to Islamic Finance" kitobida ushbu masalga quyidagicha to'xtaladi. Salam shartnomasi islomiy moliya tizimi kontekstida o'rganiladi. Usmoniy bu shartnomaning foizsiz (ribo) moliyaviy mexanizmlarda qanday qo'llanishini tushuntiradi. Salamning iqtisodiyotdagi o'rni, xususan, qishloq xo'jaligi sektoridagi qo'llanishi tahlil qilinadi. [5]

Ahamiyatli jihati shundaki, Salam shartnomasi xalqaro ilmiy doiralarda ham qiziqish uyg'otmoqda. **Harvard Law School** va **Oxford Islamic Studies** markazlari tomonidan chiqarilgan ilmiy maqolalar islomiy moliya tizimi va tijorat amaliyotlari nuqtayi nazaridan Salam shartnomasini tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar asosan islomiy moliya tizimlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan.

Yana bir fiqhiy olim Ibn Rushd Salamning huquqiy asoslari, shartlari va noaniqlikdan (garar) saqlanish qoidalarini yoritib o'tgan [6].

K.S. Belyakov, "Kontraktatsiya shartnomalari va ularning huquqiy asoslari": Ushbu asarda kontraktatsiya shartnomasining Rossiya va O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektoridagi ahamiyati va huquqiy xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif bu shartnomaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ham tadqiq etadi. Unga ko'ra, bu shartnoma o'zining huquqiy tabiati bilan oddiy oldi-sotdi shartnomasidan farq qiladi, chunki u asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelajakda yetkazib berish majburiyatiga asoslangan. Bu uning konsensual tabiati bilan bog'liq bo'lib, shartnoma tuzilishi bilan kuchga kiradi va har ikki tomon uchun huquqiy majburiyatlar yuklaydi. [7]

XULOSA

Salam shartnomasi asosan Islomiy moliya tizimi doirasida ribosiz va garardan saqlanish qoidalari asosida tuziladi, bu esa oldindan to'liq to'lov va kelajakda mahsulot yetkazib berishni nazarda tutadi.

Kontraktatsiya shartnomasi fuqarolik huquqi doirasida tuzilib, to'lov va yetkazib berish shartlari erkin kelishuv asosida amalga oshiriladi. Bu shartnoma qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda yetkazib berish va haqini to'lashni ta'minlaydi.

Har ikkala shartnoma ham iqtisodiy risklarni kamaytirish va tomonlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, tomonlar o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun huquqiy himoya mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Muhammad Taqi Usmani, o'zining "Islom moliyasiga kirish" asarida xatarlarni boshqarish mexanizimi bo'yicha quyidagicha fikr bildiradi: "Salam shartnomasi doirasida xatarlarni boshqarish mexanizmlari, mahsulotning tavsifi, miqdori va sifati orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklarni oldini olish va shartnoma shartlarini bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Aniq va batafsil tavsif, miqdor va sifat shartlari, shuningdek, qo'shimcha choralar, shartnoma bajarilishining samaradorligini ta'minlaydi [8]"-deydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan shuni xlosa qilish mumkinki, salam va kontraktatsiya shartnomalari, ikkisi ham qishloq xo'jaligi va savdo sohasida keng

qo'llaniladigan huquqiy vositalar hisoblanadi. Ular oldindan to'lov va yetkazib berish jarayonlarini tartibga soluvchi muhim shartnomalar bo'lib, xatarlarni boshqarishning samarali mexanizmlariga ega. **Salam shartnomasi** asosan oldindan to'lov asosida kelajakda mahsulot yetkazib berishni nazarda tutsa, **kontraktatsiya shartnomasi** mahsulot yetkazib berilgandan keyin to'lovni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Har ikkala shartnomada ham taraflarning majburiyatlari, to'lov va javobgarliklar, shuningdek, xatarlarni boshqarish mexanizmlari aniq belgilanishi, kelishmovchiliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Muhsin Khan, Sahih al-Buxoriy, Kitob al-Buyu', Hadis №2239
2. <https://www.fiqh.uz>
3. Abdulmannon Abdulloh. "Tijorat va ishlab chiqarish haqida tashavvur" -T.: "Hilol-Nashr", 2022. 216 b.
4. N. Xushbokova КОНТРАКТАЦИЯ ШАРТНОМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҚОИДАЛАРНИ ВА НИЗОЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ // SAI. 2022. №С4. URL:
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontraktatsiya-shartnomasi-bilan-bo-li-oidalarni-va-nizolarni-tartibga-solish-masalalari> (дата обращения: 09.10.2024). Muhammad Taqi Usmani, "An Introduction to Islamic Finance", 1998, sahifa 42-43.
6. **Ibn Rushd**, "*Bidayat al-Mujtahid wa Nihayat al-Muqtasid*", 12th century, Book 2, Chapter 4, pp. 246-250 (Discussion on Salam contract, its uncertainty, and legal principles).
7. **К.С. Беляков**, "*Контракция и её правовые основы*", Москва, 2005, стр. 145-150
8. Ibn Rushd, "*Bidayat al-Mujtahid wa Nihayat al-Muqtasid*", Book 2, Chapter 4, pp. 246-250.